

# MUHANDISLIK

## & IQTISODIYOT

*ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,  
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal*

**2026-YIL**  
**IYUN/6-SON, II-QISM**



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 - Texnika fanlari

08.00.00 - Iqtisodiyot fanlar



Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB™  
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

Academic  
Resource  
Index  
ResearchBib

ISSN INTERNATIONAL  
STANDARD  
SERIAL  
NUMBER  
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

OpenAIRE

ROAD

INDEX COPERNICUS  
INTERNATIONAL

BASE

Crossref

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ  
БИБЛИОТЕКА  
LIBRARY.RU



**ISSN: 3060-463X**

РЭУ.РФ  
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ  
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА  
ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛИАЛ



# **muhandislik** **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,  
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr, 2026-yil, iyun.

## **Bosh muharrir:**

**Zokirova Nodira Kalandarovna**, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

## **Bosh muharrir o'rinbosari:**

**Shakarov Zafar G'afrovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

## **Tahrir hay'ati:**

**Abduraxmanov Kalendar Xodjayevich**, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Sharipov Kongratbay Avezimbetovich**, texnika fanlari doktori, professor

**Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Shaumarov Said Sanatovich**, texnika fanlari doktori, professor

**Turayev Bahodir Xatamovich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Nasimov Dilmurod Abdulloyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Allayeva Gulchexra Jalgasovna**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Arabov Nurali Uralovich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Xamrayeva Sayyora Nasimovna**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Bobonazarova Jamila Xolmurodovna**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Irmatova Aziza Baxromovna**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

**Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

**Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

**Amanov Otabek Amankulovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

**Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li**, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Qurbonov Samandar Pulatovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Tabayev Azamat Zaripbayevich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Sxay Lana Aleksandrovna**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

**Ismoilova Gulnora Fayzullayevna**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

**Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

**Kasimova Nargiza Sabitdjanovna**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

**Kalanova Moxigul Baxritdinovna**, dotsent

**Ashurzoda Luiza Muxtarovna**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

**Bauyetdinov Majit Janizaqovich**, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

**Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li**, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Sultonov Shavkatjon Abdullayevich**, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

**Jo'raeva Malohat Muhammadovna**, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

**Yusupov Maxamadamin Abduxamidovich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor

**Kalonova Moxigul Baxritdinovna**, iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent

**Mirzayev Kulmamat Djanzakovich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor.

**Karimova Nilufar Sadirdin qizi**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Norboyev Odil Abrayevich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

**Nasimov Dilmurod Abdulloyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

**Mirzayev Kulmamat Djanzakovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

**Karimova Nilufar Sadirdin qizi**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Pardaev Umidjon Uralovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

**Xolmirzayev Ulug'bek Abdulazizovich**, Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc)

# muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,  
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi  
05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari  
05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash  
05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari  
05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti  
05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi  
05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari  
05.01.07 – Matematik modellashtirish  
05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt  
05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik  
05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari  
05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti  
05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash  
05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi  
05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari  
05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari  
05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi  
05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish  
05.08.06 – "G'ildirakli va gusenisali mashinalar va ularni ishlatish" (texnika fanlari)  
05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar  
05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari  
10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik  
10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti  
08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi  
08.00.02 – Makroiqtisodiyot  
08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti  
08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti  
08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti  
08.00.06 – Ekonometrika va statistika  
08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit  
08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit  
08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti  
08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti  
08.00.11 – Marketing  
08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot  
08.00.13 – Menejment  
08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari  
08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti  
08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya  
08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

## Ma'lumot uchun, OAK

Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

**Muassis:** "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

**Hamkorlarimiz:**

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



# MUNDARIJA

|   |     |
|---|-----|
| XO'JALIK YURITUVCHI SUBYEKTLARNING LIKVIDLILIGINI TA'MINLASH MASALALARI.....  | 10  |
| <b>Bauyetdinov M.J.</b>   |     |
| O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA OLIY TA'LIM TIZIMINI MODERNIZATSIYA QILISH STRATEGIYASI.....   | 18  |
| <b>Usmanova Zumrad Islamovna, Xasanova Yulduz Kayumovna</b>   |     |
| TOKLI O'TKAZGICHLARDA MAGNIT MAYDON INDUKSIYASINING NAZARIY TAHLILI .....   | 23  |
| <b>O'ngboyev Anvar, Umarov Uyg'un, Dusiyorov Jaxongir, Jonimqulov Mirtemur</b>  |     |
| QISHLOQ XO'JALIGIDA SUV RESURSLARINI BOSHQARISHNING INNOVATSION MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....   | 30  |
| <b>Akbarova Shaxnoza Yakub qizi</b>   |     |
| IQLIM O'ZGARISHI SHAROITIDA ASALARICHILIK TARMOG'I SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA DAVLAT QO'LLAB-QUVVATLASH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....                                 | 33  |
| <b>Farmanov Jonibek Ziyadullayevich</b>   |     |
| BILVOSITA SOLIQLARNI MA'MURIY BOSHQARISH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI ....  | 38  |
| <b>Mansurova Arofatxon Shavkat qizi</b>   |     |
| BANKLARNING MOLIYAVIY BARQARORLIGINI XALQARO USULLAR VA MEZONLAR ASOSIDA BAHOLASHNI TAKOMILLASHTIRISH.....  | 43  |
| <b>G'aybulloyev Suxrob Odil o'g'li</b>  |     |
| IDEMPOTENT O'LCHOVLAR SIMPLEKSIDA ANIQLANGAN CHIZIQLI OPERATORLAR DINAMIKASINING EKOLOGIK MODELLASHTIRISHDAGI TATBIQI .....   | 50  |
| <b>Karimov Muzaffar Musaxonovich, Karimova Shalola Musayevna</b>  |     |
| BANKLARARO LIKVIDLILIKNI BOSHQARISHDA SUN'IY INTELLEKT VA BIG DATA TEXNOLOGIYALARINI QO'LLASH ISTIQBOLLARI .....  | 56  |
| <b>Baxromov Nodirjon Muxammadamin o'g'li</b>  |     |
| BANKLARDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA XIZMAT KO'RSATISH SIFATINI OSHIRISH .....  | 60  |
| <b>Asemova Rano Jabbarbergenovna</b>  |     |
| ПРОГНОЗИРОВАНИЕ ПОКАЗАТЕЛЕЙ ПРОДОВОЛЬСТВЕННОЙ БЕЗОПАСНОСТИ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН НА ОСНОВЕ СЦЕНАРНОГО АНАЛИЗА РАЗВИТИЯ АПК.....   | 66  |
| <b>Ли Марина Рудольфовна</b>  |     |
| POLIMER VA UGLEROD NANOTOLALI MODIFIKATORLAR ASOSIDA BITUM KOMPOZITSIYALARINING REOLOGIK, MIKROTUZILMAVIY VA ADGEZION XOSSALARINI TAKOMILLASHTIRISHNING QIYOSIY TAHLILI ..... | 70  |
| <b>Hasanov Bahrom Bo'ronovich</b>   |     |
| XORIJIY TADBIRKORLIK RIVOJLANISHIGA XALQARO IQTISODIY INTEGRATSIYANING TA'SIRI.....   | 76  |
| <b>Mamatraimov Islom Mamanazarovich</b>   |     |
| SULFIDLI POLIMETALL RUDALARNI SELEKTIV FLOTATSIYALASHDA YANGI AVLOD REAGENTLARINI QO'LLASHNING TEXNOLOGIK YECHIMLARI TAHLILI.....   | 79  |
| <b>Xushvaqтова Zamira Hikmatulloyevna, Saidaxmedov Aktam Abdisamiyevich</b>   |     |
| LOGICLABUZ: A BROWSER-NATIVE CO-SIMULATION PLATFORM FOR THE VIRTUALIZATION OF MULTI-MCU ROBOTIC SYSTEMS .....   | 84  |
| <b>Ergashev Adizbek Kamol ugli</b>  |     |
| DUBAY IQTISODIYOTINING DIVERSIFIKATSIYALASHUV BOSQICHLARI VA UNDAN O'ZBEKISTONDA FOYDALANISH IMKONIYATLARI.....   | 94  |
| <b>Dilmira Abdumalikovna Shamusarova</b>  |     |
| MINTAQADA TIBBIY TURIZMNI RIVOJLANTIRISHNING XALQARO MODELLARI.....   | 99  |
| <b>Yusupova Mehrigon O'ktamovna</b>   |     |
| EKONOMETRIK MODELLARNI TANLASH VA ULARNING SIFATINI BAHOLASHDA INTEGRAL MEZONNI QO'LLASH .....  | 104 |
| <b>Turayev Baxtiyor Ergashevich</b>   |     |



|  |     |
|--|-----|
| PHP VA SUN'YI INTELLEKT SINERGIYASI: LARAVEL ASOSIDA INTELLEKTUAL VEB-TIZIMLARNI LOYIHALASH ARXITEKTURASI.....   | 110 |
| <b>Jo'rayev To'xtasin, Abdusattarov Odiljon, Boymatov Mexrojiddin, Temirova Orifa, Yuldashboyev Shermuxammad</b>   |     |
| CORPORATE GOVERNANCE QUALITY, FOREIGN DIRECT INVESTMENT, AND ECONOMIC GROWTH: A PANEL ECONOMETRIC ANALYSIS OF CENTRAL ASIAN COUNTRIES (2003–2024).....                       | 119 |
| <b>Yusufjon Pulatov</b>  |     |
| TIJORAT BANKLARI KREDIT PORTFELINI DIVERSIFIKATSIYA QILISH VA KREDIT RISKLARINI BOSHQARISHNI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI.....  | 129 |
| <b>Sheraliyev Olimjon O'ktam o'g'li</b>  |     |
| МЕХАНИЗМ УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ КРУПНЫХ ПРОМЫШЛЕННЫХ ПРЕДПРИЯТИЙ В НАЦИОНАЛЬНОЙ ЭКОНОМИКЕ.....   | 135 |
| <b>T.T. Жураев</b>   |     |
| XORAZM VILOYATIDA KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISH ASOSIDA HUDUDIY BANDLIKNI KENGAYTIRISH MEKANIZMLARI .....   | 140 |
| <b>Azadova Gulnoza Sardorbekovna</b>   |     |
| YASHIL IQTISODIYOT, RESURS SAMARADORLIGI, TABIIY KAPITAL, AYLANMA IQTISODIYOT, EKOLOGIK SAMARADORLIK VA INKLYUZIV O'SISH TUSHUNCHALARINING ILMIY EVOLYUTSIYASI TAHLILI ..... | 146 |
| <b>Karimov Islombek Bekpo'lat o'g'li</b>   |     |
| РОЛЬ АЛГОРИТМОВ В ПРОЦЕССЕ ПРИНЯТИЯ ИНВЕСТИЦИОННЫХ РЕШЕНИЙ НА СОВРЕМЕННЫХ РЫНКАХ КАПИТАЛА .....  | 153 |
| <b>Алиева Сусанна Сейрановна</b>   |     |
| РОЛЬ АЛГОРИТМОВ В ПРОЦЕССЕ ПРИНЯТИЯ ИНВЕСТИЦИОННЫХ РЕШЕНИЙ НА СОВРЕМЕННЫХ РЫНКАХ КАПИТАЛА .....  | 153 |
| <b>Алиева Сусанна Сейрановна</b>   |     |
| BUXORO VILOYATIDA ERKIN IQTISODIY ZONALAR FAOLIYATI VA ASOSIY KO'RSATKICHLARI TAHLILI.....   | 160 |
| <b>Ibragimov Aziz Turayevich</b>   |     |
| ALOQA XIZMATLARINI KO'RSATUVCHI SUBYEKTLARDA SOLIQLAR HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH .....   | 168 |
| <b>Shirinov Uchqun, Bahodirova Madinabonu</b>  |     |
| TA'LIM XIZMATLARI EKSPORTINI RIVOJLANTIRISHGA TA'SIR ETUVCHI OMILLARNING SWOT VA OMILLI TAHLILI.....   | 176 |
| <b>Alimova Shamsiya Abidovna</b>   |     |
| ВЫЗОВЫ РАЗВИВАЮЩИХСЯ РЫНКОВ: ИНФРАСТРУКТУРНАЯ МОДЕРНИЗАЦИЯ, ЧЕЛОВЕЧЕСКИЙ КАПИТАЛ И ЦИФРОВАЯ ТРАНСФОРМАЦИЯ.....   | 182 |
| <b>Умарова Шахноза Акбаровна</b>   |     |
| YASHIL IQTISODIYOT SHAROITIDA QUYOSH ENERGIYASIGA ASOSLANGAN YOMG'IRLATIB SUG'ORISH TIZIMINING IQTISODIY-EKOLOGIK SAMARADORLIGINI BAHOLASH.....                              | 190 |
| <b>Nurmetova Muyassar Jumanazarovna</b>  |     |
| TIJORAT BANKLARI KREDITLARINING DAROMADLILIGINI OSHIRISH YO'LLARI.....   | 200 |
| <b>Ulug'bek Abraxmatov</b>   |     |
| ZAMONAVIY TELEKOMMUNIKATSIYA TARMOQLARIDA TRAFIK TURLARINING XUSUSIYATLARI VA ULARNING XIZMAT KO'RSATISH SIFATIGA TA'SIRI.....   | 204 |
| <b>Abdujapparova M.B., Mirxosilov M.M.</b>   |     |
| TURIZMNI MINTAQAVIY RIVOJLANTIRISHDA KLASTERLASH MODELINING TAMOYILLARI VA TARKIBIY ELEMENTLARI .....  | 209 |
| <b>Abduxamidov Sarvar Adxamovich</b>   |     |
| DIGITAL TECHNOLOGIES AND FOOD SECURITY IN DEVELOPED COUNTRIES .....  | 214 |
| <b>Rakhmatova Mukhlisa Dilshod qizi</b>  |     |



|   |     |
|---|-----|
| THE ROLE OF DIGITAL TECHNOLOGIES IN THE DEVELOPMENT OF THE TOURISM SECTOR OF UZBEKISTAN: AN ECONOMETRIC ANALYSIS .....  | 221 |
| <b>Toshmurod Kulmanov, Sarvar Urinov</b>  |     |
| QISHLOQ XO'JALIGIDA INNOVATSION JARAYONLARNI MOLIYALASHTIRISHNING MATEMATIK MODELI .....  | 228 |
| <b>Ishniyazov Baxrom Normamatovich, A'zam Qutbiddin A'zamzoda</b>   |     |
| ОБЯЗАТЕЛЬНОЕ МЕДИЦИНСКОЕ СТРАХОВАНИЕ В КЫРГЫЗСКОЙ РЕСПУБЛИКЕ: ПРОБЛЕМЫ И ПУТИ ИХ РЕШЕНИЯ .....  | 234 |
| <b>Омокеев Максымбек Конколойевич</b>   |     |
| RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA MINTAQAVIY TURIZMNI RIVOJLANTIRISHNING ZAMONAVIY MEKANIZMLARI .....  | 239 |
| <b>Abduxamidov Sarvar Adxamovich</b>  |     |
| МАХАЛЛИЙ БЮДЖЕТ ХАРАЖАТЛАРИ САМАРАЛИ ИЖРОСИНING MOLIYAVIY MUSTAQILLIKKA TA'SIRI ....  | 244 |
| <b>Usmonov Parviz Shavkatovich</b>  |     |
| О'ZBEKISTONDA NAQD PULLARNING AYLANMASINI QISQARTIRISH IMKONIYATLARI .....  | 249 |
| <b>Gadoyev So'hrob Jumakulovich</b>   |     |
| СОЦИАЛЬНЫЕ ТЕХНОЛОГИИ КАК ИНСТРУМЕНТ ОБЕСПЕЧЕНИЯ УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ ПРЕДПРИЯТИЙ СФЕРЫ УСЛУГ .....   | 258 |
| <b>Абдуллаева Зульфия Иззатовна</b>   |     |
| RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA O'ZBEKISTONDA TURIZM XIZMATLARI SAMARADORLIGINI OSHIRISH BO'YICHA IJTIMOY-IQTISODIY ISLOHOTLAR TAHLILI.....                                | 263 |
| <b>Xalimov Shaxboz Xalimovich</b>   |     |
| СТАТИСТИЧЕСКАЯ ОЦЕНКА ЧУВСТВИТЕЛЬНОСТИ ОБЪЁМА ИНВЕСТИЦИЙ К УРОВНЮ ИНФОРМАЦИОННОЙ ПРОЗРАЧНОСТИ РЕГИОНАЛЬНЫХ РЫНКОВ .....   | 270 |
| <b>Бекматов Акмал Курбонмахматович</b>  |     |
| MINTAQANI BARQAROR RIVOJLANTIRISHDA RAQAMLI IQTISODIYOT SALOHİYATINI OSHIRISH (XORAZM VILOYATI MISOLIDA) .....  | 277 |
| <b>Samandarov Jamshidbek Davronbekovich</b>   |     |
| SANOAT KORXONALARIDA INVESTITSIYA JARAYONLARI RIVOJLANISHINING ASOSIY OMILLARI VA ISTIQBOLDAGI RIVOJLANISH TENDENSIYALARI.....  | 283 |
| <b>Quvatova Gulzoda Faxriddin qizi</b>  |     |
| ANTIBAKTERIAL FAOLLIKKA EGA BO'LGAN YANGI ORGANIK ASOSLI, XONA HARORATIDA FOSFORLANUVCHI MATERIALLARNING FUNKSIONAL XOSSALARI .....                                       | 292 |
| <b>Ro'ziyev Suxrobjon Qahramon o'g'li</b>   |     |
| SUN'IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARINING BANK XIZMATLARIGA INTEGRATSIYASI .....   | 299 |
| <b>Abdullayeva Madinabonu Xasanboyevna</b>  |     |
| LOGISTIKA KOMPANIYALARIDA BOSHQARUV TIZIMLARINI LOYIHALASHTIRISHNING XORIJIY TAJRIBASI VA UNI RESPUBLIKA KICHIK TRANSPORT-LOGISTIKA KORXONALARIDA QO'LLASH.....           | 305 |
| <b>Shadibekova Dildor Abduraxmanovna</b>  |     |
| AGROVOLTAIKA VA VENCHUR KAPITAL: O'ZBEKISTONDA QISHLOQ XO'JALIGI VA QUYOSH ENERGIYASINI BIRLASHTIRGAN INNOVATSION INVESTITSIYA MODELINI SHAKLLANTIRISH IMKONIYATLARI..... | 311 |
| <b>Qarajanova Gulnoza Tolliyevna</b>  |     |
| SUV RESURSLARIDAN FOYDALANISH TIZIMINI AVTOMATLASHTIRISHDA SOLIQLARNING ROLINI OSHIRISH MASALALARI .....  | 320 |
| <b>Boymurotov Sodiq</b>   |     |
| HUDUDIY IQTISODIY RIVOJLANISHDA KICHIK BIZNESNING INSTITUTSIONAL OMILLARI .....   | 324 |
| <b>Toirjonov Sardorbek Dilshodjon o'g'li</b>  |     |
| QURILISH XIZMATLARI KO'RSATISH TIZIMINING SUN'IY INTELLEKT ASOSIDA BOSHQARUV SAMARADORLIGINI OSHIRISH MUAMMOLARI.....   | 329 |
| <b>Qidirniyazov Ajiniyaz Sherniyazovich</b>   |     |



|   |     |
|---|-----|
| TIJORAT BANKLARIDA KROSS-SOTUVLAR TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH.....   | 334 |
| <b>Xudayarova Xurshida Abdunazarovna</b>  |     |
| BIZNES JARAYONLARI SAMARADORLIGINI INTEGRAL INDEKS ASOSIDA BAHOLASH.....  | 338 |
| <b>Shodmanov Toshtemir Ro'ziyevich</b>  |     |
| O'ZBEKISTONNING ENERGETIK SALOHİYATI EMPIRIK TAHLILI.....   | 342 |
| <b>Nigmatullayeva Gulchexra Nurullayevna</b>  |     |
| FAVQULOTDA VAZIYATLARDA SUV TOSHQINI VA SEL HOLATLARIDA AHOLI VA HUDUDLARINI HIMOYA QILISHGA SALBIY TA'SIR KO'RSATUVCHI MUAMMOLI MASALALAR VA ULARNI BARTARAF QILUVCHI BULDOZER ISHCHI JIHOZI KONSTRUKSIYASI..... | 354 |
| <b>Yangiboyev G'iyosjon, Asqarxo'jayev To'lqin</b>  |     |
| KAM XARAJATLI AVIATASHUVCHILAR FAOLIYATINING FAOLIYATINING SAMARQAND TURIZMI RIVOJLANISHIGA TA'SIRI.....  | 359 |
| <b>Alisher Suyunov</b>  |     |
| POLIMER VA UGLEROD NANOTOLALI MODIFIKATORLAR ASOSIDA BITUM KOMPOZITSIYALARINING REOLOGIK, MIKROTUZILMAVIY VA ADGEZION XOSSALARINI TAKOMILLASHTIRISHNING QIYOSIY TAHLILI.....                                      | 366 |
| <b>Hasanov Bahrom Bo'ronovich</b>   |     |
| GEN Z AVLODI BILAN ISHLASHDA HR STRATEGIYALARI.....   | 372 |
| <b>Xasanov Sarvar Ulug'bek o'g'li</b>   |     |
| МЕНЕДЖМЕНТ УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ ПРЕДПРИЯТИЙ.....  | 378 |
| <b>Махмудов Суннатжон Абдужаббор угли</b>   |     |
| ОЦЕНКА ЭКОНОМИЧЕСКИХ ПРЕИМУЩЕСТВ ВНЕДРЕНИЯ «СМАРТ-ТУРИЗМА» В УЗБЕКИСТАНЕ.....   | 383 |
| <b>Юсубова Махлиё Икромовна</b>   |     |
| HUDUDLARDA TURISTLARGA UMUMIY OVQATLANISH XIZMATLARINI RIVOJLANTIRISHNING STRATEGIK MODELINI TAKOMILLASHTIRISH: EKOTIZIMLI YONDASHUV.....   | 389 |
| <b>Maxmadiyeva Charos Xayrullayevna</b>   |     |
| HAYOT FAOLIYATI XAVFSIZLIGI FANINING FANLARARO BOG'LIQLIGI: NAZARIY ASOSLAR VA AMALIY YONDASHUV.....  | 397 |
| <b>Nigmatjonov Sardor Abdumannobovich</b>   |     |
| KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING BANDLIKNI TA'MINLASHDAGI AHAMIYATI.....   | 403 |
| <b>Mamadaliyev Doniyorbek Shuxratbek o'g'li</b>   |     |
| O'ZBEKISTON SHAHARLARINING EKOTRANSFORMATSIYASI.....  | 410 |
| <b>Xusainov Oybek Djabbarovich</b>  |     |
| KAPITAL BOZORI ORQALI MOLIYALASHTIRILADIGAN INVESTITSION LOYIHALARDA RISKLARNI BAHOLASH VA BOSHQARISH.....  | 414 |
| <b>G'afurov Sherzod Abduvaxob o'g'li</b>  |     |
| QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASIDA QISHLOQ XO'JALIGINING EKOLOGIK BARQARORLIGINI OSHIRISHDA SMART TEXNOLOGIYALARNI TATBIQ ETISH METODOLOGIYASI.....  | 421 |
| <b>Mirzataev Salamat Muratbaevich</b>   |     |
| OZIQ-OVQAT BOZORI RIVOJLANISHINI PROGNOZLASH MEXANIZMINI O'RGANISH METODIKASI.....  | 426 |
| <b>Omonturdiyev Ortiq Eshboyevich, Abduraxmanova Zuxra Toxir qizi</b>   |     |
| ЭЛЕКТРОННОЕ ГОСУДАРСТВО И ЦИФРОВЫЕ СЕРВИСЫ: ВЛИЯНИЕ НА РАЗВИТИЕ МАЛОГО БИЗНЕСА В УЗБЕКИСТАНЕ.....   | 434 |
| <b>Ли Д.Э.</b>  |     |
| KICHIK TADBIRKORLIK SUBYEKTLARI FAOLIYATINING MAKROIQTISODIY TAHLILI VA RIVOJLANISH TENDENSIYALARI.....   | 440 |
| <b>Xikmatullayeva Nargiza Jamoliddin qizi</b>   |     |
| INNOVATSION YONDASHUVLAR ASOSIDA RAQAMLI MARKETING STRATEGIYALARINI RIVOJLANTIRISH USULLARI.....  | 446 |
| <b>Uzoqova Dilnoza Yusuf qizi</b>   |     |



|   |     |
|---|-----|
| TO'QIMACHILIK KORXONALARIDA YASHIL MARKETING VOSITALARIDAN FOYDALANISH<br>ISTIQBOLLARI.....   | 453 |
| <b>Jo'raboyev Jurabek Muhibillo o'g'li</b>  |     |
| XIZMATLAR SOHASINI RIVOJLANTIRISH ORQALI KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISH DAVLAT IJTIMOY-<br>IQTISODIY SIYOSATINING USTUVOR YO'NALISHLARIDAN BIRI..... | 457 |
| <b>Islomov Shuhrat Marufjonovich, Saparov Murod Irgashovich</b>   |     |
| O'ZBEKISTONDA TASHISH VA SAQLASH XIZMATLARI BOZORINING RIVOJLANISH XUSUSIYATLARI ..   | 462 |
| <b>Usmanova Zumrad Islamovna, Pardayeva Kamola</b>  |     |
| OLIJ TA'LIM MUASSASALARIDA TA'LIM SIFATINI BOSHQARISH MEXANIZMLARINI<br>TAKOMILLASHTIRISH.....  | 467 |
| <b>Xasanova Yulduz Kayumovna</b>  |     |



# OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA TA'LIM SIFATINI BOSHQARISH MEKANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH

**Xasanova Yulduz Kayumovna**  
Samarqand iqtisodiyot va servis instituti  
“Turizm” kafedrası assistenti  
E-mail: [yulduzhasanova934@gmail.com](mailto:yulduzhasanova934@gmail.com)

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini boshqarish mexanizmlarini takomillashtirishga alohida e'tibor qaratilgan. Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish zamonaviy bilim iqtisodiyoti talablariga mos, raqobatbardosh va innovatsion kadrlar tayyorlashni o'z ichiga olishi bo'yicha taklif va xulosalar berilgan.

**Kalit so'zlar:** oliy ta'lim, strategik yo'nalishlar, ta'lim jarayoni, normativ-huquqiy hujjat, strategik qaror, modernizatsiya, strategik rejalashtirish, ta'lim sifati, xalqaro mezon.

**Abstract.** This article focuses on improving education quality management mechanisms in higher education institutions. Recommendations are offered and conclusions are drawn that improving education quality management mechanisms in higher education institutions includes training competitive and innovative personnel in accordance with the requirements of the modern knowledge economy.

**Keywords:** higher education, strategic directions, educational process, normative legal act, strategic decision, modernization, strategic planning, quality of education, international criteria.

**Аннотация.** Данная статья посвящена совершенствованию механизмов управления качеством образования в высших учебных заведениях. Предлагаются рекомендации и сделаны выводы о том, что совершенствование механизмов управления качеством образования в высших учебных заведениях включает подготовку конкурентоспособных и инновационных кадров в соответствии с требованиями современной экономики знаний.

**Ключевые слова:** высшее образование, стратегические направления, образовательный процесс, нормативно-правовой акт, стратегическое решение, модернизация, стратегическое планирование, качество образования, международные критерии.

## KIRISH

Ta'lim sifatini boshqarish zamonaviy ta'lim tizimining muhim strategik yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Chunki bugungi globallashuv va raqamli transformatsiya sharoitida oliy ta'lim tizimi nafaqat bilim beruvchi, balki raqobatbardosh, innovatsion fikrlovchi va amaliy ko'nikmalarga ega mutaxassislarni tayyorlovchi murakkab ijtimoiy institutga aylanmoqda. Shu bois ta'lim sifatini boshqarish jarayonlari an'anaviy nazorat shakllarini takomillashtirib, kompleks, tizimli va xalqaro standartlarga mos mexanizmlar asosida tashkil etilishi zarur.

Ta'lim sifatini boshqarish mexanizmlari, avvalo, ichki va tashqi baholash tizimlarining uzviy integratsiyasiga asoslanadi. Ichki sifat ta'minoti tizimi oliy ta'lim muassasasining o'zida ta'lim jarayonini rejalashtirish, amalga oshirish, monitoring qilish va doimiy takomillashtirishni nazarda tutadi. Bu jarayonda o'quv dasturlarining zamonaviy talablarga mosligi, professor-o'qituvchilarning malakasi, talabalar bilimini baholash mezonlari hamda o'quv-uslubiy ta'minotning sifati muhim ahamiyat kasb etadi. Tashqi baholash esa akkreditatsiya, reytinglar va mustaqil baholash tizimlari orqali amalga oshirilib, ta'lim muassasalarining faoliyatini xalqaro mezonlar asosida baholash imkonini beradi.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Mamlakatimizda Yangi O'zbekiston iqtisodiyotini jadal rivojlantirish yuqori malakali, oliy ma'lumotli soha mutaxassislarni tayyorlashni taqozo etadi va mazkur jarayon ta'lim xizmatlarini sifatli amalga oshirish bilan bevosita bog'liq hisoblanadi. Shunday ekan, ushbu jarayonni tizimli amalga oshirish ta'lim xizmatlarining iqtisodiy mohiyatini ochib berishni taqozo etadi.

Ta'lim xizmatlari to'g'risida bir qator soha olimlari va mutaxassislarining ilmiy qarashlari, fikrlari shakllangan. Ushbu soha bo'yicha yetakchi olimlardan L. V. Zaxarovaning fikriga ko'ra, "ta'lim xizmatlari — bu zamonaviy fan va texnika yutuqlari asosida u yoki bu ko'rinishdagi kasbiy faoliyatda amal qilishi uchun zaruriy bilim, mahorat, ko'nikmalarni egallashda jismoniy va yuridik shaxslar ehtiyojlarini qondirishga yo'naltirilgan o'quv yurtlari faoliyatidir".

Shuningdek, soha yetakchi olimi D. V. Maslovaning fikricha, "ta'lim xizmatlari — insonning mehnatga turli xil qobiliyatlarini shakllantirish jarayoni, ya'ni kompleks manfaatlar shaklini qabul qiluvchi inson kapitaliga investitsiyalashdir".

Shu bilan birga, boshqa iqtisodchi olimlar ham o'z qarashlarini bayon qilishgan. Jumladan, T. A. Sonning fikricha, "ta'lim xizmatlari — ishchi kuchini tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirishga hamda xodimning kasb yoki malaka olishiga, qayta malakadan o'tishiga, ishlab chiqarish talabini qondirishga yo'naltirilgan o'quv yurtining o'quv, boshqaruv va moliyaviy natijasidir".

Boshqa bir soha mutaxassisi M. A. Lukashenko o'zining ilmiy ishlarida "ta'lim xizmatlari — bu ta'limda subyektlar ehtiyojlarini qondiruvchi va bunday faoliyatga olib boruvchi buyum shaklidagi ta'lim mahsulotlari o'rtasidagi jami maqsadga muvofiq faoliyatdir", degan fikrlarni ilgari suradi.

Respublikamiz olimlari ham bu borada o'z fikrlarini bayon qilishgan. Ayniqsa, professor G. A. Oxunovanning fikriga ko'ra, ta'lim xizmatlarining mohiyati ta'lim xizmatlari bozori bilan bevosita bog'liq ekanligi ilmiy asoslangan bo'lib, unga ko'ra, "ta'lim xizmatlari bozori — ta'lim xizmatlarining oldi-sotdi jarayonlari yuzasidan iqtisodiy munosabatlar sohasi ekanligi" ilmiy asoslab berilgan.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda tizimli yondashuv, qiyosiy tahlil, statistik tahlil va ilmiy umumlashtirish metodlaridan foydalanildi. Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish bo'yicha qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlar, strategik dasturlar va statistik ma'lumotlar tahlil qilindi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish jarayoni O'zbekiston Respublikasida qabul qilingan bir qator muhim normativ-huquqiy hujjatlar va strategik qarorlar asosida izchil amalga oshirilmogda. Ushbu hujjatlar ta'lim tizimini takomillashtirish va sifat ko'rsatkichlarini xalqaro mezonlarga moslashtirish hamda boshqaruv samaradorligini oshirishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlarni o'z ichiga oladi.

Avvalo, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmoni [1] oliy ta'lim tizimini modernizatsiya qilishda asosiy strategik hujjatlardan biri hisoblanadi. Mazkur konsepsiyada ta'lim sifatini oshirish muhim vazifa sifatida belgilangan bo'lib, unda oliy ta'lim muassasalarida ichki va tashqi sifat nazorati tizimini joriy etish, xalqaro akkreditatsiyadan o'tish, zamonaviy o'quv dasturlarini ishlab chiqish va professor-o'qituvchilar salohiyatini oshirish kabi ustuvor vazifalar belgilab berilgan. Ushbu hujjat asosida oliy ta'lim muassasalarining faoliyatini baholashda natijadorlik va samaradorlik mezonlarini qo'llashga alohida e'tibor qaratildi.

So'nggi yillarda oliy ta'lim tizimini kengaytirish, yangi universitetlar tashkil etish, xorijiy oliy ta'lim muassasalari filiallarini ochish va ta'lim jarayoniga ilg'or pedagogik texnologiyalarni joriy etish orqali ta'lim sifatini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar amalga oshirildi. Mazkur jarayonlar ta'lim tizimida raqobat muhitini shakllantirish hamda sifatni oshirishga xizmat qiluvchi institutsional asoslarni mustahkamlashga imkon berdi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-oktabrdagi PF-6097-son "Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmoni [2] ham oliy ta'lim sifatini boshqarish mexanizmlarini mustahkamlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu farmon asosida ilmiy tadqiqotlar va ta'lim jarayonining integratsiyasini kuchaytirish, innovatsion faoliyatni qo'llab-quvvatlash hamda ilmiy natijalarni amaliyotga joriy etish mexanizmlarini takomillashtirishga alohida e'tibor qaratildi. Bu esa ta'lim sifatining ilmiy asoslanganligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 24-iyuldagi O'RQ-630-son "Innovatsion faoliyat to'g'risida"gi Qonuni [3] oliy ta'lim muassasalarida innovatsion faoliyatni rivojlantirish, ilmiy ishlanmalarni amaliyotga tatbiq etish va ta'lim jarayonida innovatsion yondashuvlardan foydalanish uchun muhim huquqiy asos hisoblanadi. Mazkur qonun oliy ta'lim muassasalarida ilmiy-amaliy loyihalar, startup tashabbuslar va innovatsion ishlanmalarni qo'llab-quvvatlash imkoniyatlarini kengaytiradi.

Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni [4]



doirasida oliy ta'lim tizimida sifatni boshqarishga alohida e'tibor qaratilgan. Ushbu strategiyada oliy ta'lim muassasalariga akademik va moliyaviy mustaqillik berish, ularni xalqaro reytinglarda munosib o'rinlarga olib chiqish, ta'lim jarayonini raqamlashtirish va zamonaviy boshqaruv mexanizmlarini joriy etish kabi muhim vazifalar belgilangan. Bu chora-tadbirlar ta'lim sifatini boshqarishda markazlashgan tizimdan mustaqil va natijadorlikka asoslangan boshqaruv modeliga bosqichma-bosqich o'tishga xizmat qilmoqda.

Ta'lim sifatini nazorat qilish va baholash tizimini takomillashtirish maqsadida ta'lim tashkilotlarini attestatsiya va akkreditatsiyadan o'tkazish, oliy ta'lim muassasalari faoliyatini monitoring qilish hamda reyting ko'rsatkichlari asosida baholash mexanizmlari rivojlantirilmog'da. Bu esa ta'lim sifatini oshirishda tashqi baholash va mustaqil monitoring mexanizmlarining ahamiyatini kuchaytiradi.

Yana bir muhim hujjat — O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 31-dekabrda 824-son "Oliy ta'lim muassasalarida o'quv jarayoniga kredit-modul tizimini joriy etish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi qaroridir [5]. Ushbu qaror asosida kredit-modul tizimi bosqichma-bosqich joriy etilib, ta'lim sifatini boshqarishda shaffoflik, moslashuvchanlik va natijadorlikni ta'minlashga xizmat qilmoqda. Kredit-modul tizimi asosida baholash mezonlari aniq belgilandi, talabalar bilimni baholash jarayoni xalqaro amaliyotga moslashtirildi.

Shu bilan birga, oliy ta'lim muassasalarini moliyalashtirish tizimini takomillashtirishga qaratilgan chora-tadbirlar ham amalga oshirilmog'da. Universitetlarga o'z mablag'larini mustaqil boshqarish huquqining berilishi, grantlar va investitsiyalarni jalb qilish imkoniyatining kengaytirilishi ularning moddiy-texnik bazasini mustahkamlashga hamda ta'lim sifatini oshirishga xizmat qilmoqda.

Raqamli transformatsiya jarayonlarini qo'llab-quvvatlash maqsadida elektron ta'lim platformalari, masofaviy ta'lim tizimlari, onlayn baholash va raqamli boshqaruv tizimlari joriy etilmog'da. Bunday mexanizmlar ta'lim sifatini nazorat qilishda ochiqlikni oshirish, salbiy holatlarning oldini olish va boshqaruv samaradorligini ta'minlashga imkon beradi.

#### 1-jadval.

#### Ta'lim sifatini boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish jadvali<sup>1</sup>

| № | Mexanizm nomi                      | Mazmuni (ilmiy tavsif)  | Amalga oshirish vositalari  | Kutilayotgan natijalar   |
|---|------------------------------------|---|---|--|
| 1 | Ichki sifat ta'minoti tizimi       | OTM doirasida ta'lim jarayonini doimiy monitoring va tahlil qilish asosida sifatni boshqarish | Ichki audit, o'quv dasturlar monitoringi, talabalar fikrini o'rganish | Ta'lim sifati barqaror oshadi, mavjud muammolarni aniqlash imkoniyati oshadi |
| 2 | Tashqi baholash va akkreditatsiya  | Mustaqil tashkilotlar tomonidan OTM faoliyatini xalqaro mezonlar asosida baholash             | Akkreditatsiya, reyting tizimlari, ekspert baholash                   | Xalqaro tan olinishi oshadi, raqobat muhiti rivojlanadi                      |
| 3 | Kredit-modul tizimi                | Talaba markazlashgan, natijaga yo'naltirilgan ta'lim modeli                                   | Kredit tizimi, modul dasturlar, shaffof baholash mezonlari            | Talabalar mustaqilligi va bilim sifati oshadi                                |
| 4 | Raqamli ta'lim texnologiyalari     | Ta'lim jarayonini raqamlashtirish orqali samaradorlikni oshirish                              | LMS platformalar, onlayn darslar, elektron baholash tizimi            | Shaffoflik va tezkorlik ta'minlanadi   |
| 5 | Professor-o'qituvchilar salohiyati | Pedagoglarning ilmiy va metodik darajasini oshirish orqali sifatni ta'minlash                 | Malaka oshirish, xorijiy malaka oshirish amaliyotlari, ilmiy grantlar | Ta'lim sifati va innovatsion yondashuvlar oshadi                             |
| 6 | Ilm-fan va ta'lim integratsiyasi   | Ta'lim va ilmiy tadqiqotlarni uyg'unlashtirish orqali sifatni oshirish                        | Ilmiy markazlar, startaplar, grant loyihalar                          | Amaliy bilimlar va innovatsiyalar rivojlanadi                                |
| 7 | Mehnat bozori bilan integratsiya   | Ta'lim mazmunini ish beruvchilar talabiga moslashtirish                                       | Dual ta'lim, amaliyot dasturlari, hamkorlik shartnomalari             | Bitiruvchilarning bandligi oshadi  |
| 8 | Sifat menejmenti tizimi            | Ta'lim jarayonini xalqaro standartlar asosida boshqarish                                      | ISO 9001 tizimi, PDCA sikli   | Jarayonlar optimallashtiriladi, sifat nazorati kuchayadi                     |

1 Manba: muallif ishlanmasi.

|    |                                   |  |  |   |
|----|-----------------------------------|--|--|---|
| 9  | Akademik va moliyaviy mustaqillik | OTMlarning mustaqil boshqaruvini kengaytirish orqali samaradorlikni oshirish | Avtonomiya, mustaqil budjet, strategik boshqaruv | Raqobatbardoshlik va innovatsion rivojlanish oshadi |
| 10 | Xalqaro integratsiya              | Ta'lim tizimini global standartlarga moslashtirish                           | Bolonya jarayoni, qo'shma dasturlar              | Global ta'lim tizimiga integratsiya kuchayadi       |

Zamonaviy yondashuvlarga ko'ra, ta'lim sifatini boshqarishda ISO 9001 kabi xalqaro sifat menejmenti standartlaridan foydalanish samarali natijalar bermoqda. Ushbu standartlar asosida oliy ta'lim muassasalarida jarayonlarga yo'naltirilgan boshqaruv, ta'lim oluvchilar ehtiyojlariga moslashuv, doimiy takomillashtirish tamoyillari joriy etiladi. Natijada ta'lim jarayonining barcha bosqichlarida sifatni nazorat qilish emas, balki uni tizimli ravishda boshqarish imkoniyati yaratiladi.

Ta'lim sifatini oshirishda kredit-modul tizimining joriy etilishi ham muhim mexanizm hisoblanadi. Ushbu tizim Bolonya jarayoni doirasida shakllangan bo'lib, talabaning mustaqil ta'lim olish ulushini oshirish, o'quv yuklamasini optimallashtirish hamda baholash tizimini shaffoflashtirishga xizmat qiladi. Kredit-modul tizimi orqali ta'lim jarayoni natijaga yo'naltirilgan model asosida tashkil etilib, talabalar egallashi lozim bo'lgan kompetensiyalar aniq belgilab beriladi.

Raqamli texnologiyalarni joriy etish ta'lim sifatini boshqarish mexanizmlarini takomillashtirishda alohida o'rin tutadi. Elektron ta'lim platformalari, Learning Management System (LMS), onlayn monitoring va baholash tizimlari orqali ta'lim jarayonining shaffofligi va samaradorligi oshiriladi. Bu tizimlar yordamida talabalar bilimni real vaqt rejimida baholash, o'quv jarayonini tahlil qilish va mavjud muammolarni aniqlash va bartaraf etish imkoniyati yaratiladi. Shu bilan birga, katta ma'lumotlar (Big Data) va analitik vositalardan foydalanish orqali ta'lim sifati bo'yicha chuqur tahlillar o'tkazish mumkin.

Professor-o'qituvchilar salohiyatini oshirish ham ta'lim sifatini boshqarishning asosiy omillaridan biridir. Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni egallagan, ilmiy faoliyat bilan muntazam shug'ullanuvchi o'qituvchilar ta'lim sifatini ta'minlashning muhim omili hisoblanadi. Shu sababli ularning malakasini oshirish, xalqaro tajribani o'rganish, ilmiy tadqiqotlarga jalb etish orqali pedagogik salohiyatni rivojlantirish zarur. Bu jarayonda ilmiy-pedagogik faoliyatni rag'batlantirish tizimi muhim rol o'ynaydi.

Ta'lim sifatini boshqarishda manfaatdor tomonlar — talabalar, ish beruvchilar va jamiyatning ishtirokini ta'minlash ham muhim mexanizmdir. Ta'lim dasturlarini ishlab chiqishda ish beruvchilarning talablarini inobatga olish, bitiruvchilarning bandlik darajasini tahlil qilish hamda talabalar fikr-mulohazalarini muntazam o'rganish orqali ta'lim mazmunini doimiy ravishda takomillashtirish mumkin. Bu esa ta'lim tizimining mehnat bozori talablariga moslashuvchanligini oshiradi.

Shuningdek, oliy ta'lim muassasalarida sifatni boshqarishning samarali modeli sifatida "doimiy takomillashtirish sikli" (PDCA — Plan, Do, Check, Act) keng qo'llanilmoqda. Ushbu model asosida ta'lim jarayoni rejalashtiriladi, amalga oshiriladi, natijalar tahlil qilinadi va aniqlangan kamchiliklar asosida takomillashtirish choralari ishlab chiqiladi. Bu esa sifatni boshqarishda uzluksizlik va barqarorlikni ta'minlaydi.

Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish kompleks yondashuvni talab etadi. Bu jarayonda xalqaro standartlarni joriy etish, raqamli texnologiyalardan foydalanish, inson resurslarini rivojlantirish hamda manfaatdor tomonlar bilan samarali hamkorlikni yo'lga qo'yish asosiy omillar hisoblanadi. Mazkur mexanizmlarning izchil amalga oshirilishi oliy ta'lim tizimining sifat va raqobatbardoshlik ko'rsatkichlarini oshirib, uni zamonaviy talablar darajasida faoliyat yurituvchi tizimga aylantirishga xizmat qiladi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish zamonaviy bilim iqtisodiyoti talablariga mos, raqobatbardosh va innovatsion kadrlar tayyorlashning asosiy omilidir. Amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida ta'lim tizimida ichki va tashqi sifat nazorati, kredit-modul tizimi, raqamli texnologiyalar hamda xalqaro standartlarga mos boshqaruv mexanizmlari izchil joriy etilmoqda.

Natijada oliy ta'lim tizimi an'anaviy yondashuvlarni takomillashtirib, samaradorlik, shaffoflik va natijadorlikka asoslangan zamonaviy modelga o'tmoqda. Ushbu jarayonlarning izchil davom ettirilishi ta'lim sifatini yanada oshirib, O'zbekiston oliy ta'lim tizimining xalqaro maydondagi raqobatbardoshligini mustahkamlashga xizmat qiladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son Farmoni. "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 09.10.2019-y., 06/19/5847/3887-son. — <https://lex.uz/docs/-4545884>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-oktabrdagi PF-6097-son Farmoni. "Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi. — <https://lex.uz/docs/-5073447>
3. O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 24-iyuldagi O'RQ-630-son Qonuni. "Innovatsion faoliyat to'g'risida" // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi. — <https://lex.uz/docs/-4910391>
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son Farmoni. "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 29.01.2022-y. — <https://lex.uz/docs/-5841063>
5. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 31-dekabrda 824-son qarori. "Oliy ta'lim muassasalarida o'quv jarayoniga kredit-modul tizimini joriy etish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida" // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi. — <https://lex.uz/docs/-5193564>
6. ISO. ISO 9001:2015. Quality management systems — Requirements. — Geneva: International Organization for Standardization, 2015. — <https://www.iso.org/standard/62085.html>
7. OECD. OECD Digital Education Outlook 2021: Pushing the Frontiers with Artificial Intelligence, Blockchain and Robots. — Paris: OECD Publishing, 2021. — DOI: 10.1787/589b283f-en.
8. UNESCO. Global Education Monitoring Report 2023: Technology in Education — A Tool on Whose Terms? — Paris: UNESCO, 2023.
9. Bates, A. W. Teaching in a Digital Age: Guidelines for Designing Teaching and Learning. 2nd ed. — Vancouver: BCcampus, 2019.
10. Siemens, G. Connectivism: A Learning Theory for the Digital Age // International Journal of Instructional Technology and Distance Learning. — 2005. — Vol. 2, No. 1. — P. 3–10.
11. Selwyn, N. Should Robots Replace Teachers? AI and the Future of Education. — Cambridge: Polity Press, 2019. — 160 p.

# **muhandislik**

# **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,  
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Zokir Alibekov

**Sahifalovchi va dizayner:** Abdurahmon Qurbonov

---

## 2026. № 6

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan  
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi  
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan  
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.  
**Litsenziya raqami: №095310.**

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod  
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



[t.me/yait\\_2100](https://t.me/yait_2100)